



MATN VA UNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI

Nasim Xo‘jayev Sadullayevich,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi
nasimxujayev8@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243795>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim elementdan biri bo‘lgan matn haqida fikr yuritiladi. Shu maqsadda, maqola davomida matn va uning shakllanish jarayoni, tilshunoslikda tutgan o‘rni, tilshunos olimlar tomonidan unga berilgan turli ta‘riflar nazariy tahlil qilinadi.

Kait so‘zlar: Matn, obyekt, tilning lug‘at sostavi, grammatik va stilistik bog‘lanishlar, intersubektiv faoliyat.

Har qanday ilmiy tahlil o‘rganilayotgan obyekt haqida, uning ma‘lum voqelikda, mavjud bo‘lgan xususiyatlari haqida aniq ma‘lumot bermog‘i darkor. To‘plangan ma‘lumotlar asosida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan xulosalar shakllanadi. Xulosalarda obyektning tub, haqiqiy mohiyati va uni bilish jarayonida aniqlangan xususiyatlar aks etadi [1:7]. Tadqiqotimizning asosiy obyekti matn bo‘lib, ushbu maqolada matn va uning shakllanish jarayoni, tilshunoslikdagi o‘rni hamda turli tilshunos olimlar tomonidan berilgan ta‘riflar tahlil qilinadi.

Matn til birliklari asosida yaratiladi. Matn yaratish jarayonida biz tilning lug‘at boyligidan, grammatik qurilish elementlaridan va ularni bog‘lovchi qoidalardan foydalanib, so‘z birikmalari va gaplarni hosil qilamiz. So‘z muayyan ma‘noni, so‘z birikmasi tushunchani, gap esa tugal fikrni ifodalaydi. Bir yoki bir nechta gaplar mikromatnni, undan kattaroqlari esa makromatnni tashkil etadi. Mikro va makromatnlar ma‘lum bir mavzu atrofida birlashib, yaxlit asarni vujudga keltiradi. Bu tizimli jarayon ilmiy yoki badiiy asar matnining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, matn katta hajmli aloqa birligi, inson nutqiy faoliyatining mahsulidir. Og‘zaki nutqni yozma shaklga o‘tkazishda muayyan lingvistik qonuniyatlarga amal qilinadi.

Tugal nutqiy butunlik matn deb ataladi. Matnlar sodda va murakkab tuzilishga ega bo‘lib, og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi (supersemantik birlik) sifatida qaraladi va matn tilshunosligi fanining asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tilshunos olimlar M.Qurbonova va M.Yo‘ldoshev “Matn lingvistikasi” nomli kitobida “Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar tilning barcha sath (fonologik, morfologik, sintaktik) larining har biri bilan boliq muammolar tadqiqida jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Matn va uning tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asr o‘rtalariga kelib paydo bo‘la boshladi”



degan ta’rifni berishadi [2:5]. Bundan ko‘rinadiki, manbaga taynadigan bo‘lsak matn degan tushunchaning o‘zi qanchalik qadimiy bo‘lishiga qaramasdan, uni izchil o‘rganish jarayoni faqat yigirmanchi asrga kelibgina keng qamrovda olib borilgan ekan.

Matn va uning mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asr o‘rtalarida paydo bo‘la boshlagan bo‘lsa-da, matn tushunchasining o‘zi ancha qadimiy. Matnning tilshunoslikdagi o‘rni va maqomi borasida turli xil fikrlar mavjud. Matnda belgilarning tabiati, uni nutqiy jarayon deb atash mumkinligi yoki matnni nutqiy jarayonning hosilasi sifatida qarash kerakligi, matnni og‘zaki yoki yozma nutq bilan o‘rganish maqsadga muvofiqligi kabi masalalar turli nazariy qarashlarga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘pgina tadqiqotchilar “matn” tushunchasiga faqat lingvistik vositalar bilan ta’rif berish yetarli emas deb hisoblaydi. Ularning fikricha, matn muayyan faoliyat natijasidir, odatda nutq, badiiy matn esa shaxsning ijodiy salohiyati, qobiliyati va psixologik xususiyatlarining namoyon bo‘lishidir.

V.P. Belyanin matnni aloqaning asosiy birligi, axborotni saqlash va uzatish vositasi, madaniyatning mavjudlik shakli, tarixiy davr mahsuli va inson hayotiy tajribasining aksi deb ta’riflaydi [3:121].

Professor I.R. Galperin matnni to‘liqlik, yaxlitlik va izchillik bilan ajralib turadigan, nom (sarlavha) va bir qator o‘ziga xos til birliklaridan (suprafrazal birliklar) tashkil topgan yozma nutq mahsuloti deb hisoblaydi. U til birligi sifatida matnning asosiy belgilari grammatik va semantik to‘liqlik ekanligini ta’kidlaydi [4:338]. Galperin shuningdek, matnni yozma nutq mahsuloti deb hisoblab, og‘zaki nutqni turli qaytariqlar va uzilishlarni o‘z ichiga olgani uchun tadqiqot obyekti sifatida qaralmasligi kerak degan fikrni bildiradi [5:140].

V.A. Lukin matnni belgilar ketma-ketligi shaklida mavjud bo‘lgan, rasmiy izchillik, semantik yaxlitlik va ularning o‘zaro ta’siri asosida yuzaga keladigan rasmiy-semantik tuzilishga ega xabar sifatida ta’riflaydi [6:55].

E. Qilichev “Matnning lingvistik tahlili” kitobida matnni “barcha elementlari o‘zaro zich bog‘liq bo‘lgan va muallif niyati bilan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma” deb ta’riflaydi. I. Rasulov esa matnni “gapdan katta birlik, fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘liq gaplar birlashmasi bo‘lib, unda fikr gapga nisbatan to‘liqroq ifodalanadi” deb ta’riflaydi [7].

G.V. Kolshanskiy lisoniy faoliyatning asosida muloqot maqsadi yotganini va til tizimi birliklarining asosiy vazifasi kommunikativ faoliyatni ta’minlash ekanini



ta'kidlaydi. Uning fikricha, kommunikatsiya doimo fikr va axborot almashishga qaratilgan bo'lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyatidagi amaliy va nazariy ehtiyojlarini qondiradi [8].

Lisoniy muloqotning bir qismi bo'lgan kommunikativ jarayon matn birligi bo'lishi uchun Kolshanskiy ta'kidlagan talablarga javob berishi kerak. Axborot uzatish o'zaro fikr almashinuvini, ya'ni intersub'yektiv faoliyatni talab qiladi. Shuning uchun matnda ikki nutqiy harakatning birikishi minimal nutqiy muloqotni va axborot uzatish maqsadini amalga oshiradi. Matn muloqot birligi bo'lishi uchun mazmunan va strukturaviy jihatdan tugal bo'lishi shart.

T. Turdiniyozov matn tarkibi bir so'zdan tortib, bir necha bobgacha bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq u matn tilshunosligi muammolarini bir so'zli, birikma yoki sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq emasligini aytadi, chunki bunday matnlar til tizimi unsurlarining nutqqa ko'chirilishini to'liq tavsiflab berolmaydi [9:21].

M. Qurbonova va M. Yo'ldoshevlarning “Matn tilshunosligi” kitobida keltirilishicha, M.V. Lyapon matn tavsifini quyidagi to'rt belgiga asoslaydi:

1. Matn – gaplarning o'zaro munosabatidan kelib chiqadigan xabar. Matn tilshunoslik hodisalarini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

2. Matn – so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vosita. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi muhit vazifasini bajaradi.

3. Matn – so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsuli.

4. Matn – til tizimining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasi [10:7].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, matn muayyan aloqa doirasidagi kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan g'oyaga (kontseptsiyaga) asoslangan nutqiy jarayondir.

Har bir tilshunos olim “matn” tushunchasiga o'z nuqtai nazaridan yondashadi. Matn keng qamrovli va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, murakkab jarayon hisoblanadi. Matn o'rganishda uning semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv va nominativ jihatlarini hisobga olish lozim. Har bir tadqiqotchi o'z qarashlari asosida matnga ta'rif beradi va hech bir ta'rif uni to'liq qamrab ololmaydi. Barcha ta'riflar o'ziga xos haqiqatga ega bo'lib, tadqiqotchilar matnning turli qirralarini ochib berishga harakat qilishadi. Shu sababli ham “matn” tushunchasi atrofida turli xil fikrlar paydo bo'lgan.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. Toshkent-2008-yil.
2. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. -Toshkent . “Universitet” nashriyoti. 2014.
3. Belyanin V.P. Психолингвистические аспекты художественного текста. –М.: MGU, 1988.
4. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М.: “Наука”, 1981.
5. 5 Lukin V.A. Badiiy matn: Nazariya asoslari va tahlil elementlari. M., Os-89, 2005.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1983, 1-son.
7. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. - М.: “Наука”, 1987.
8. Мусулманова Н.Р. Лингвопоэтика – тил ва адабиёт муштараклиги// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. <https://zenodo.org/records/778655>, 2023
9. Musulmanova N.R. Filologiya yo‘nalishi rusiyzabon guruhlarida o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitishda asar tahlili muammolari. *O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti, 1* [01], 39–44. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/97/86>, 2024